



«TASDIQLAYMAN»
“Biznesni rivojlantirish banki” ATB
Boshqaruv raisi o'rinbosari v.b.:
O.Voxidov

«10» iyun 2026 y.
№ 418

**“BANKOMATLARNI (RECYCLING) YETKAZIB BERISH”
BO‘YICHA TOPSHIRIQNOMA VA TEXNIK TALABLAR**

Toshkent – 2026 yil.

TEXNIK QISM

BANKOMATLARNI (RECYCLING) YETKAZIB BERISH BO'YICHA TEXNIK TALABLAR VA TOPSHIRIQ

1. Umumiy talablar

Tovar tavsifi: Bankomat- recycling - milliy va xorijiy valyutada plastik kartalar (Uzcard, HUMO, kobeydjing kartalari, UnionPay, MasterCard, VISA va boshqalar) orqali naqd pul mablag'larini qabul qilish va berish uchun mo'ljallangan, naqd pul mablag'larining yopiq aylanish sikli (resirkulyatsiya) funksiyasiga ega qurilma.

Quyidagi operatsiyalarni amalga oshirish imkoniyatini ta'minlashi lozim:

- ⌚ to'lovlarni amalga oshirish;
- ⌚ hisob raqami qoldig'ini (balansni) ko'rish;
- ⌚ operatsiyalar tarixini ko'rish;
- ⌚ SMS-xabar berish xizmatini ulash va o'chirish;
- ⌚ PIN-kodni almashtirish;
- ⌚ bank kreditlarini so'ndirish;
- ⌚ xizmatlar uchun to'lovlarni amalga oshirish (davlat to'lovlari, kommunal to'lovlar, mobil aloqa xizmatlari uchun to'lovlar va boshqalar).

Xarid jarayoni ishtirokchisi xarid qilinayotgan tovarning talab etilayotgan to'liq hajmi bo'yicha taklif taqdim etishi shart.

Mahsulot nomi, miqdori hamda zarur texnik tavsiflari 1-jadval va 2-jadvalda keltirilgan.

1-Jadval

Tovarning spetsifikatsiyasi

Mahsulot nomi	Miqdori
Recycling Bankomati	50

2-Jadval

Tovarning texnik xususiyatlari

Funksional talablar	⌚ Naqd pul mablag'larini qabul qilish va berish: ⌚ milliy valyutada; ⌚ xorijiy valyutada; ⌚ valyuta ayirboshlash operatsiyalari bo'yicha; ⌚ Naqd pul mablag'larining yopiq aylanish sikli (Recycler); ⌚ SMS-xabar berish xizmati; ⌚ Quyidagi xizmatlar uchun to'lovlarni amalga oshirish: ⌚ kreditlarni so'ndirish; ⌚ xizmatlar uchun to'lovlar (davlat to'lovlari, kommunal to'lovlar, mobil aloqa xizmatlari uchun to'lovlar va boshqalar).
Mijoz interfeysi	⌚ displey - kamida 23 dyuymli suyuq kristalli sensorli ekran,

	qo‘shimcha ravishda himoyalovchi polyarizatsiya filtri bilan; ⌚ klaviatura - himoyalangan EPP (PCI DSS 6.0x va undan yuqori standart talablariga javob beruvchi), DES va Triple DES shifrlash algoritmlarini qo‘llab-quvvatlashi lozim; ⌚ kartani o‘qish qurilmasi - EMV standartini qo‘llab-quvvatlovchi motorlashtirilgan bank kartalarini o‘qish qurilmasi; ⌚ ma’lumot tashuvchilarni kiritish/chiqarish uchun o‘rnatilgan yorug‘lik indikatorlari (MEEI); ⌚ skimmingdan himoya qilish yechimi (SPS); ⌚ o‘rnatilgan kontaktsiz kartani o‘qish qurilmasi; ⌚ audio tizim (ixtiyoriy) va/yoki ovoz balandligini boshqarish imkoniyatiga ega audio chiqish uyasi; ⌚ shtrix-kodlarni o‘qish qurilmasi - bir o‘lchamli (1D) va ikki o‘lchamli (2D) shtrix-kodlarni o‘qishni qo‘llab-quvvatlashi (ixtiyoriy).
Banknotlarni qabul qilish va berish qurilmasi	⌚ banknotlarni resirkulyatsiya qilish moduli - kamida 4 ta resirkulyatsiya kassetasi va kamida 1 ta depozit kassetasiga ega bo‘lishi lozim (har bir kasseta sig‘imi kamida 2000 ta kupyura); ⌚ qo‘shimcha kassetalar to‘plami (4 ta resirkulyatsiya kassetasi va 1 ta konfiguratsiyalanuvchi depozit kassetasi); ⌚ bir nominal yoki bir valyuta uchun sozlanadigan kassetadan foydalanish imkoniyati; ⌚ banknotlarni tortib olish va yaroqsiz deb topilganlarini rad etish imkoniyati; ⌚ kamida 300 ta kupyura sig‘imiga ega vaqtinchalik saqlash moduli («eskrou-modul»); ⌚ qabul qilish/berish tezligi - sekundiga kamida 10 ta kupyura; ⌚ kupyuralarni qabul qilish va berish sloti sig‘imi - kamida 100 ta kupyura; ⌚ seyf ichidagi kupyura tashish moduli va kassetalar nosozliklarini ko‘rsatuvchi indikatsiya mavjud bo‘lishi lozim.
Kupyura qabul qilgich	⌚ barcha qo‘llanilayotgan valyutalarni aniqlash, qalbaki va shikastlangan kupyuralarni tanib olish hamda rad etish funksiyasiga ega bo‘lishi lozim; ⌚ O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki talablariga muvofiq kupyuralarni majburiy validatsiya qilishni ta’minlashi lozim. Metallarni aniqlash, banknotlarni (shu jumladan UZS valyutasini) deteksiya qilish va tanib olish, shuningdek kupyuralarning himoya belgilari va elementlarini aniqlash funksiyalariga ega bo‘lishi kerak (O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining 2018-yil 29-iyunda ro‘yxatdan o‘tkazilgan, 3028-sonli qaroriga muvofiq); ⌚ UZS va USD valyutalari uchun valyuta kutubxonalarining mavjudligi majburiy bo‘lib, ularni kengaytirish imkoniyati ta’minlangan bo‘lishi lozim.
Printerlar	⌚ termografik printer; ⌚ quyidagi datchiklarga ega bo‘lishi lozim: ⌚ qog‘oz mavjudligi datchigi; ⌚ qog‘oz tiqilib qolishini aniqlash datchigi;

	⌚ chek chiqish datchigi.
Xavfsizlik	⌚ USB portlarini himoya qilish va tarkibiy qismlarni tekshirish funksiyasi; ⌚ Uzluksiz elektr ta'minoti manbai (UPS): ⌚ UPS bankomatning maksimal yuklamada kamida 10 daqiqa davomida barqaror kuchlanish va avtonom ishlashini ta'minlashi lozim; ⌚ akkumulyator sig'imi kamida 600 Vt·soat bo'lishi kerak; ⌚ UPS turi - Online yoki Line-Interactive; ⌚ chiqishda sof sinusoidal kuchlanishga ega bo'lishi; ⌚ kuchlanishni stabilashtirish funksiyasini qo'llab-quvvatlashi lozim. ⌚ buzib kirishga qarshi chidamlilik bo'yicha kamida CEN-1 sinf talablariga javob beradigan seyf; ⌚ elektron yoki mexanik (sharikli) qulf; ⌚ mijozlar uchun orqa ko'rish oynasi; ⌚ kupyuralarni tashish mexanizmini bloklash qurilmasining mavjudligi; ⌚ antiskimming tizimi (faol yoki passiv).
Xizmat ko'rsatish	Bankomatlarga xizmat ko'rsatish faqat orqa tomondan yoki old tomondan amalga oshirilishi nazarda tutiladi.
Operatsion platforma	⌚ protsessor - kamida 12 yadroli, takt chastotasi kamida 4,0 GHz bo'lishi lozim; ⌚ operativ xotira (RAM) hajmi kamida 16 GB bo'lishi kerak; ⌚ tizim uchun xotira hajmi kamida 512 GB SSD, qo'shimcha ehtiyojlar uchun esa kamida 1 TB SSD/HDD bo'lishi lozim; ⌚ LAN, COM va USB portlarining mavjudligi; ⌚ On Board DVI va On Board VGA chiqishlari; ⌚ LAN tarmoq interfeysi - 10/100/1000 Mb; ⌚ USB portlari soni kamida 8 ta (ona platada); ⌚ DisplayPort qo'llab-quvvatlovchi port - kamida 1 ta; ⌚ elektr ta'minoti bankomatning to'liq va barqaror ishlashini ta'minlashi hamda maksimal iste'mol qilinadigan quvvatdan kamida 10 foiz zaxiraga ega bo'lishi lozim.
Dasturiy ta'minot	⌚ Windows operatsion tizimining amaldagi (dolzarb) versiyasi oldindan o'rnatilgan bo'lishi lozim; ⌚ bankomatning ishlashi uchun zarur bo'lgan qo'shimcha dasturiy paket to'plam tarkibida bo'lishi kerak; ⌚ O'zbekiston Respublikasining Uzcard va HUMO protsessing markazlari bilan mos kelishi lozim; <i>(Agar resaykling bankomatlari Uzcard va HUMO to'lov tizimlari bilan mos kelmasa, yetkazib beruvchi</i>

	<i>uskunalarni yetkazib berish boshlanishidan oldin tegishli protsessing markazlarida zarur test sinovlari va sertifikatlashtirish jarayonlaridan o'tishi shart.)</i> ⌚ VISA, MasterCard, China UnionPay va boshqa xalqaro to'lov kartalari bilan ishlashda bankning protsessing markazi bilan mos kelishi lozim; ⌚ cheklarning mazmuni va shaklini Buyurtmachi talablariga muvofiq sozlash imkoniyatiga ega bo'lishi kerak; ⌚ dasturiy ta'minot uchun barcha litsenziyalar muddatsiz (doimiy) bo'lishi lozim; ⌚ dasturiy ta'minot bankning avtomatlashtirilgan bank tizimi (ABT/ABS) va koll-markazi bilan ishlashni ta'minlashi, shuningdek mijoz sessiyalarini shifrlash funksiyasiga ega bo'lishi kerak.
Qo'shimcha talablar	⌚ biometrik autentifikatsiyani qo'llab-quvvatlashga tayyor bo'lishi lozim; ⌚ kontaktsiz to'lovlarni amalga oshirish imkoniyatiga tayyor bo'lishi kerak; ⌚ videokuzatuv tizimi mavjud bo'lishi lozim (old zonadagi kamera, kupyura berish zonasidagi kamera va videoregistrator), bunda tranzaksiya raqami yoki sanasi bo'yicha foto/video materiallar hamda elektron jurnal ma'lumotlarini tezkor qidirish imkoniyati ta'minlanishi kerak; ⌚ bankomat eshigi ochilganda operatorni xabardor qiluvchi dasturiy signalizatsiya tizimi (ixtiyoriy); ⌚ monitoring tizimi; ⌚ valyuta ayirboshlash (cash-to-cash) funksiyasini «kalit topshirish» (turnkey) asosida joriy etish; ⌚ ishlash harorat diapazoni: ⌚ yopiq binolar ichida: 0°S dan +40°S gacha; ⌚ tashqi muhitda: 0°S dan -30°S gacha.

(Xarid jarayoni ishtirokchilari doirasini kengaytirish maqsadida, Buyurtmachi tomonidan mazkur Texnik topshiriqda ko'rsatilgan uskunalarga funksional jihatdan o'xshash yoki texnik xususiyatlari yuqori bo'lgan uskunalar ham ko'rib chiqiladi.)

Xarid komissiyasi takliflarni xarid shartlari talablariga, shuningdek ularga kiritilgan barcha qo'shimcha talablarga muvofiqligi nuqtai nazaridan tekshiradi.

Texnik taklifda (1-jadvalga muvofiq) xarid jarayoni ishtirokchisi quyidagilarni ko'rsatishi shart:

- a) yetkazib beriladigan tovarning ishlab chiqarilgan yili;
- b) yetkazib beriladigan tovarning kelib chiqish mamlakati;
- v) kafolat muddati va kafolatli xizmat ko'rsatish shartlari to'g'risidagi ma'lumotlar;
- g) ishlab chiqaruvchi zavod nomi;
- d) Tovarni yetkazib berish muddati.

Xarid jarayoni ishtirokchisi taklifning texnik qismida quyidagi hujjatlarni taqdim etishi shart:

- a) texnik taklif (1-jadvalga muvofiq);

b) mahsulot ishlab chiqaruvchilari tomonidan berilgan, ishtirokchining O'zbekiston Respublikasi hududida taklif etilayotgan Tovarni sotish vakolatiga ega ekanligini tasdiqlovchi avtorizatsiya hujjatlarining asl nusxalari yoki notarial tasdiqlangan ko'chirmalari;

v) o'xshash Tovarlarni yetkazib berish tajribasi mavjudligini tasdiqlovchi ma'lumotlar;

g) mazkur texnikaga kafolatli xizmat ko'rsatishni ta'minlash uchun O'zbekiston Respublikasidagi ishlab chiqaruvchining servis markazlari ro'yxati va ularning manzillari.

2. Xarid qilish maqsadi

Bank filiallarida, bank mijozlari hududlarida hamda aholi uchun qulay joylarda, shu jumladan 24/7 xizmat ko'rsatish nuqtalarida, binolarning tashqi devoriga o'rnatish orqali ko'chalarda joylashtirish maqsadida.

3. Mazkur xaridni amalga oshirish uchun asos

- Bank Boshqaruvining 2025 yil 27 maydagi 63/3-son qarori ko'chirmasi asosida.

4. Tovarni sug'urtalash

- Yetkazib berish shartlariga muvofiq amalga oshiriladi.

5. Tovarining o'lchamlari, qadoqlanishi va yuklab jo'natilishiga qo'yiladigan talablar

Bankomatlar yetkazib beriladigan har bir yuk joyi qarama-qarshi ikki tomondan markirovka qilingan bo'lishi shart.

Markirovka ingliz va rus tillarida o'chmaydigan bo'yoq bilan aniq va ravshan ko'rinishda tushirilishi lozim:

- ⌚ Kontrakt raqami;
- ⌚ Yuk joyi raqami;
- ⌚ Brutto og'irligi (kg);
- ⌚ Netto og'irligi (kg);
- ⌚ Miqdori;
- ⌚ Buyurtmachi (nomi va manzili);
- ⌚ Yuboruvchi (nomi va manzili).

Maxsus ehtiyotkorlik bilan muomala qilish talab etiladigan yashiklarga qo'shimcha ravishda quyidagi belgilar qo'yilishi lozim:

- ⌚ Yuqori qismi;
- ⌚ Ehtiyot bo'ling;
- ⌚ Tashlab yuborilmasin;
- ⌚ Quruq joyda saqlansin.

Barcha bankomatlar tashish, qayta yuklash va saqlash jarayonida shikastlanishdan himoya qiluvchi eksport turidagi qadoqda joylangan bo'lishi shart.

Yetkazib beruvchi sifatsiz yoki tegishli talablarga javob bermaydigan qadoqlash va/yoki tashish natijasida bankomatlarga yetkazilgan har qanday zarar uchun Buyurtmachi oldida javobgar hisoblanadi.

Yetkazib beruvchi noto'g'ri yoki to'liq bo'lmagan markirovka natijasida bankomatning shikastlanishi va/yoki noto'g'ri manzilga yetkazilishi bilan bog'liq barcha zararlar uchun javobgar bo'ladi.

Tovar yangi, avval foydalanilmagan va ekspluatatsiya qilinmagan bo'lishi shart, agar davlat xaridi tavsifida boshqacha holat nazarda tutilmagan bo'lsa.

Tovar dunyoda tan olingan mashhur ishlab chiqaruvchilar (Brand Name) mahsuloti bo'lishi lozim.

Xarid qilinayotgan bankomatlar yangi, avval foydalanilmagan hamda ishlab chiqarishdan chiqarilmagan bo'lishi shart. Ko'rgazma namunalari yoki qayta tiklangan uzellardan yig'ilgan uskunalarni yetkazib berishga yo'l qo'yilmaydi.

Uskunalar to'liq komplekt holda yetkazib berilishi va konstruktiv hamda funksional jihatdan o'zaro muvofiqlikni ta'minlashi lozim.

6. Komplektatsiyaga qo'yiladigan talablar

Yetkazib beruvchi to'liq jihozlangan va ishlashga tayyor bankomatlarni taqdim etishi shart. Zarur hollarda, ajratilgan byudjet doirasida Buyurtmachi tomonidan nazarda tutilmagan, ammo so'ralayotgan konfiguratsiyadan to'liq foydalanishni ta'minlash uchun majburiy hisoblangan qo'shimcha modullar, mahsulotlar va xizmatlarni ham taklif qilishi lozim.

Komplektatsiya mazkur Texnik topshiriqda ko'rsatilgan texnik xususiyatlarga to'liq muvofiq ravishda ta'minlanishi shart.

7. Tovarga xizmat ko'rsatish va undan foydalanishga qo'yiladigan talablar

O'zbekiston Respublikasining viloyat markazlarida malakali va sertifikatlangan mutaxassislariga ega bo'lgan, uskunalariga xizmat ko'rsatuvchi servis markazining mavjudligi Ijrochi uchun majburiy talab hisoblanadi.

Bankomatlar ishga tushirish-sozlash ishlari amalga oshirilib, dasturiy ta'minot yuklangandan so'ng ekspluatatsiya qilishga tayyor holatda bo'lishi lozim.

Barcha bankomatlar O'zbekiston Respublikasining banklararo to'lov tizimlari doirasida foydalanish uchun mo'ljallangan (mos keluvchi) bo'lishi shart.

8. Tovarni ekspluatatsiya qilish xarajatlariga qo'yiladigan talablar

Nosoz bankomatni almashtirish va uni qo'shimcha yetkazib berish bilan bog'liq barcha transport hamda boshqa xarajatlar Yetkazib beruvchi hisobidan qoplanadi.

Buyurtmachining reklamatsiyasi asosida bankomat qaytarilganda va mahsulot qo'shimcha yetkazib berilganda, mahsulotni markirovka qilish xarajatlari ham qo'shilgan holda barcha xarajatlar Yetkazib beruvchi zimmasiga yuklatiladi.

Bankomatlar ekspluatatsiya jarayonida qog'oz bilan ta'minlash, elektr energiyasi sarfi va zarur ta'mirlash ishlaridan tashqari qo'shimcha xarajatlarni talab qilmasligi lozim.

Yetkazib beruvchi ehtiyot qismlar va anjomlar (ZIP)ning zarur hajmini ehtiyojga qarab ta'minlashi shart.

ZIP hamda sarflanuvchi materiallar butun kafolat muddati uchun yetarli miqdorda hisoblangan bo'lishi lozim.

9. Tovarining texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlarga muvofiqligi bo'yicha talablar

Xarid jarayoni ishtirokchisi mahsulot ishlab chiqaruvchilari tomonidan berilgan, ishtirokchining O'zbekiston Respublikasi hududida taklif etilayotgan tovarni sotish huquqiga ega ekanligini tasdiqlovchi avtorizatsiya hujjatlarining asl nusxalari yoki tasdiqlangan ko'chirmalariga ega bo'lishi shart.

Uskunalar yong'in xavfsizligi, sanitariya me'yorlari, elektr xavfsizligi hamda elektromagnit moslashuv bo'yicha amaldagi standart va talablarga muvofiq bo'lishi lozim. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq majburiy sertifikatlashtirish talab etiladigan mahsulotlar nomenklaturasi bo'yicha tegishli hujjatlar bilan tasdiqlangan bo'lishi shart.

Agar bunday standartlar mavjud bo'lmasa, tovar kelib chiqqan mamlakatda qabul qilingan va tan olingan standartlarga muvofiq bo'lishi lozim. Bunday standartlar tegishli vakolatli tashkilotlar tomonidan nashr etilgan eng so'nggi (dolzarb) standartlar bo'lishi kerak.

Bankomatlar EMV standartlariga muvofiq bo'lishi hamda tegishli sertifikatlariga ega bo'lishi shart.

10. Yetkazib berish miqdori, davriyligi, muddati va joyiga qo'yiladigan talablar

Miqdori - **50 dona**.

Yetkazib berish muddati - yetkazib berish shartnomasi imzolanib, oldindan to'lov amalga oshirilgan sanadan boshlab **120 kalendar kunidan oshmasligi lozim**.

Yetkazib berish joyi:

- ⌚ norezidentlar uchun - **DAP/CIP, Toshkent shahri, O'zbekiston Respublikasi, Incoterms 2020** qoidalariga muvofiq;
- ⌚ rezidentlar uchun - Buyurtmachining ombori: **O'zbekiston Respublikasi, Toshkent shahri, Alisher Navoiy ko'chasi, 18a-uy**.

11. Montaj ishlarini tashkil etish (shefmontaj) bo'yicha talablar

Uskunalar yuk qabul qiluvchilarga montaj ishlarini amalga oshirishga tayyor holatda yetkazib berilishi lozim.

Yetkazib beruvchi taklif etilayotgan barcha uskunalarining ham to'plam tarkibida, ham mustaqil birlik sifatida ishlash qobiliyatini ta'minlashi shart.

Shu bilan birga, mazkur talabni ta'minlash uchun yetkazib berish to'plami tarkibiga barcha zarur komponentlar (kabellar, mahkamlash vositalari va boshqalar) kiritilgan bo'lishi lozim.

Yetkazib beruvchi bankomatlarining **Uzcard** va **HUMO** to'lov tizimlari bilan mosligini kafolatlaydi.

Agar resaykling bankomatlari Uzcard va HUMO to'lov tizimlari bilan mos kelmasa, Yetkazib beruvchi uskunalarini yetkazib berish boshlanishidan oldin tegishli protsessing markazlarida zarur test sinovlari va sertifikatlashtirish jarayonlaridan o'tishi shart.

12. Xodimlarni o'qitish bo'yicha talablar

Yetkazib beruvchi bank xodimlarini yetkazib berilayotgan bankomat modelidan foydalanish qoidalari bo'yicha o'qitishni ta'minlashi shart.

Xodimlarni o'qitish bilan bog'liq barcha xarajatlar to'liq ravishda Yetkazib beruvchi zimmasiga yuklatiladi.

13. Tovar bilan birga taqdim etiladigan hujjatlar va zarur miqdordagi sarf materiallari

Yetkazib beruvchi yuklab jo'natilgan bankomatlar bilan birga Buyurtmachiga quyidagi hujjatlarni taqdim etishi shart:

- ⌚ Buyurtmachi nomiga rasmiylashtirilgan, yuklab jo'natilgan tovarning umumiy qiymati ko'rsatilgan hisob-faktura (invoys);
- ⌚ Buyurtmachi nomiga rasmiylashtirilgan transport yuk xati;
- ⌚ qadoqlash varaqalari (upakovka ro'yxati);
- ⌚ eksport qiluvchi mamlakatning vakolatli organi tomonidan berilgan va Buyurtmachi nomiga rasmiylashtirilgan kelib chiqish sertifikati;
- ⌚ yuklab jo'natilgan tovar (bankomatlar)ning umumiy faktura qiymati ko'rsatilgan eksport yuk bo'xona deklaratsiyasi;
- ⌚ bankomat ishlab chiqaruvchisi tomonidan berilgan sifat va muvofiqlik sertifikati;
- ⌚ yetkazib berish shartlariga muvofiq sug'urta polisi yoki sug'urta sertifikati;
- ⌚ yetkazib berilayotgan bankomatlardan foydalanish (ekspluatatsiya qilish) bo'yicha hujjatlar.

14. Yetkazib berilgan tovarni topshirish va qabul qilishga qo'yiladigan talablar

Tovar kelib tushgan paytdan boshlab, Buyurtmachining mutaxassislari tomonidan uning butligi, shikastlanmaganligi, soz holatdaligi hamda texnik talablarga muvofiqligi bo'yicha tekshiruv o'tkaziladi (uskunaning transport yuk xati, qadoqlash varag'i, invoys, markirovka va shartnoma spesifikatsiyasiga muvofiqligi tekshiriladi).

Tekshiruvlar muvaffaqiyatli yakunlanganidan so'ng tomonlar tomonidan Tovarni topshirish-qabul qilish dalolatnomasi imzolanadi.

Buyurtmachi tomonidan bojxona rasmiylashtiruvi amalga oshirilib, Tovar o'z omboriga qabul qilinganidan keyin Tovar miqdori, sifati, ishlash qobiliyati, shuningdek yetkazib berilgan Tovarning bankda ekspluatatsiya qilinayotgan va O'zbekiston Respublikasida qo'llanilayotgan to'lov tizimi bilan mosligi bo'yicha tekshiriladi hamda qabul qilinadi.

Tovarning mosligi Buyurtmachi tomonidan uni o'rnatish va sozlash orqali, shuningdek O'zbekiston Respublikasining to'lov protsessing markazlaridan moslikni tasdiqlovchi hujjatni olish yo'li bilan tekshiriladi.

Faqat to'liq tekshiruv yakunlanib, tomonlar tomonidan ijobiy natija tasdiqlanganidan keyingina Tovarni qabul qilish-topshirish dalolatnomasi imzolanadi.

15. Kafolatli va kafolatdan keyingi xizmat ko'rsatish bo'yicha talablar (muddati va joyi)

Bankomatlar uchun ekspluatatsiya boshlangunga qadar va ekspluatatsiya jarayonidagi kafolat shartlari:

- ⌚ Bankomatlarga ishlab chiqaruvchi tomonidan beriladigan kafolat muddati Buyurtmachi bilan uskunani qabul qilish-topshirish dalolatnomasi imzolangan kundan boshlab kamida **1 (bir) yilni** tashkil etishi lozim. Bu ma'lumot taklifda ko'rsatilishi shart.
- ⌚ Bankomatlar faqat Buyurtmachi va mustaqil tomon tomonidan Yetkazib beruvchi vakili ishtirokida o'tkazilgan texnik ekspertiza xulosasi asosida nuqsonli deb topiladi.
- ⌚ Agar nuqsonlar Yetkazib beruvchi tomonidan tan olinsa, u nuqsonli bankomatlarni qabul qilish-topshirish dalolatnomasi rasmiylashtirilgan sanadan boshlab **30 (o'ttiz) kalendar kuni** ichida barcha nuqsonli bankomatlarni soz holatdagi bankomatlarga almashtirishi shart.
- ⌚ Agar ayrim uskunalar uchun ishlab chiqaruvchi tomonidan belgilangan standart kafolat muddati mazkur texnik topshiriqda talab qilingan kafolat muddatidan uzoqroq bo'lsa, bunday uskunalar uchun kafolat muddati ishlab chiqaruvchi tomonidan belgilangan muddatdan kam bo'lmasligi lozim.
- ⌚ Barcha uskunalar tegishli tartibda rasmiylashtirilgan kafolat talonlari bilan birga yetkazib berilishi shart.
- ⌚ Yetkazib beruvchi butun kafolat muddati davomida yetkazib berilgan uskunaning ishlash qobiliyatini saqlab turish bo'yicha maslahat va texnik ko'mak ko'rsatishni ta'minlashi lozim.
- ⌚ O'zbekiston Respublikasi hududida kafolatli servis markazining mavjudligi majburiy hisoblanadi.

Bankomatlar bo'yicha reklamatsiya (e'tiroz) shartlari:

- ⌚ Nuqsonli mahsulot yetkazib berilgan taqdirda, Buyurtmachi bankomatlar yuklab jo'natilgan sanadan boshlab **30 (o'ttiz) kalendar kuni** ichida Yetkazib beruvchiga yozma reklamatsiya taqdim etish huquqiga ega.
- ⌚ Reklamatsiyalar Yetkazib beruvchiga shaxsan, pochta orqali, telegramma yoki faks orqali yuborilishi mumkin.
- ⌚ Reklamatsiyada quyidagi ma'lumotlar ko'rsatilishi shart:
 - mahsulot nomi;
 - nuqsonli birliklar soni;
 - nuqsonning xususiyati to'g'risida batafsil ma'lumot.
- ⌚ Yetkazib beruvchi Buyurtmachining reklamatsiyasini ko'rib chiqishi va uni qabul qilish yoki rad etish to'g'risida reklamatsiyani olgan sanadan boshlab **10 (o'n) kalendar kuni** ichida yozma ravishda xabar berishi shart.

- ⌚ Bankomatlar belgilangan standartlarga javob bermagan yoki bevosita maqsadida foydalanish uchun yaroqsiz bo'lgan hollarda reklamatsiya taqdim etilishi mumkin.
- ⌚ Reklamatsiya asosli deb topilgan taqdirda, Yetkazib beruvchi nuqsonli mahsulotni nuqsonli bankomatlarni qabul qilish-topshirish dalolatnomasi rasmiylashtirilgan sanadan boshlab **60 (oltmish) kalendar kuni** ichida almashtirishi shart.

16. Servis markaziga qo'yiladigan talablar

O'zbekiston Respublikasi hududida, kamida Toshkent shahrida ishlab chiqaruvchi tomonidan vakolat berilgan (avtorizatsiya qilingan) servis markazining mavjudligi majburiy hisoblanadi (yetkazib beruvchi servis markazlarining manzillari, aloqa ma'lumotlari va boshqa ma'lumotlarni taqdim etishi shart).

Zarur hollarda ishlab chiqaruvchi mutaxassisi yoki ishlab chiqaruvchi tomonidan vakolat berilgan servis markazi mutaxassisining uskunalar o'rnatilgan joyga tashrifi ta'minlanishi lozim.

Uskunalar va dasturiy ta'minotning ishlash qobiliyatini tiklash uchun zarur bo'lgan barcha ishlar bajarilishi shart.

Kafolat muddati davomida ishdan chiqqan qismlarni bepul almashtirish va/yoki ta'mirlash ta'minlanishi lozim.

Servis xizmati ish kunlari ish vaqti davomida ko'rsatilishi, shuningdek ishlab chiqaruvchi yoki ishlab chiqaruvchi tomonidan vakolat berilgan servis markazining Texnik qo'llab-quvvatlash xizmatiga hamda dasturiy ta'minot ishlab chiqaruvchisiga mavjud barcha aloqa vositalari orqali murojaat qilish imkoniyati ta'minlanishi shart.

Servis xizmati ishlab chiqaruvchi yoki ishlab chiqaruvchi tomonidan vakolat berilgan servis markazining malakali mutaxassislari tomonidan amalga oshirilishi lozim.

Agar yetkazib beruvchi norezident hisoblansa va O'zbekiston Respublikasi hududida ishlab chiqaruvchi tomonidan vakolat berilgan (avtorizatsiya qilingan) servis markaziga ega bo'lmasa, u uskunalarini yetkazib berishdan oldin O'zbekiston Respublikasi hududida, kamida Toshkent shahrida, ishlab chiqaruvchining vakolatli servis markazini tashkil etishi va rasmiy ro'yxatdan o'tkazishi shart.

Yetkazib beruvchi tashkil etiladigan servis markazi haqida to'liq ma'lumotni (manzili, aloqa ma'lumotlari, xodimlar tarkibi va boshqa ma'lumotlar) taqdim etishi lozim.

Qo'shimcha talablar

- ⌚ Zarur hollarda ishlab chiqaruvchi mutaxassisi yoki ishlab chiqaruvchi tomonidan vakolat berilgan servis markazi mutaxassisining uskunalar o'rnatilgan joyga tashrifi ta'minlanishi lozim.
- ⌚ Uskunalar va dasturiy ta'minotning ishlash qobiliyatini tiklash uchun zarur bo'lgan barcha ishlar bajarilishi shart.
- ⌚ Kafolat muddati davomida ishdan chiqqan qismlar bepul almashtirilishi va/yoki ta'mirlanishi lozim.
- ⌚ Servis xizmati ish kunlari ish vaqti davomida ko'rsatilishi hamda ishlab chiqaruvchi yoki vakolatli servis markazining Texnik qo'llab-quvvatlash xizmatiga, shuningdek dasturiy ta'minot ishlab chiqaruvchisiga mavjud barcha aloqa vositalari orqali murojaat qilish imkoniyati ta'minlanishi shart.
- ⌚ Servis xizmati ishlab chiqaruvchi yoki u tomonidan vakolat berilgan servis markazining malakali mutaxassislari tomonidan amalga oshirilishi lozim.

17. Tovarning qoldiq yaroqlilik muddati, saqlash muddati va sifat kafolatiga qo'yiladigan talablar

Tovar sifati bo'yicha kafolat taqdim etilishi shart. Yetkazib beruvchi tovar sifati belgilangan talablarga muvofiq bo'lishini ta'minlash hamda tovarda aniqlangan nuqsonlar uchun Buyurtmachi oldida javobgarlikni o'z zimmasiga oladi.

Yetkazib beruvchi uskunaning (barcha butlovchi qismlari bilan birgalikda) EOS (End of Support/Service - texnik qo'llab-quvvatlash va servis xizmatini tugatish) sanasi yetkazib berish shartnomasi tuzilgan kundan boshlab kamida 5 yildan keyin kelishiga kafolat beradi.

Uskunani qo'llab-quvvatlash deganda uning barcha bloklari va komponentlari uchun servis xizmatining mavjudligi tushuniladi.

Yetkazib beruvchi alohida platalar va modullar bo'yicha buyurtmalar qabul qilish, ularni ishlab chiqarish va yetkazib berishni tugatish sanasi - EOM (End of Market for Expansion) yetkazib berish shartnomasi tuzilgan kundan boshlab kamida 5 yildan keyin kelishiga kafolat beradi.

18. Tovarning ishlab chiqarilgan (chiqarilgan) yiliga qo'yiladigan talablar

Bankomatlar 2025 yildan oldin ishlab chiqarilmagan bo'lishi lozim.

kelishuvchilar: J.Alimov

<https://hujjat.brb.uz/?pin=bV72jL34&id=31c33f4a-a236-47b9-ba2e-eab18ef3d89e>